

=====
**TEMURIYLAR DAVRI ADABIYOTSHUNOSLIGIDA SHE'R NAV'LARI:
ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MISOLIDA
TAHLILI**

Madinabonu Mirzayeva
ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.06.2026

Revised: 11.06.2026

Accepted: 12.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Temuriylar davri,
she'r nav'lari, Alisher
Navoiy, Zahiriddin
Muhammad Bobur,
Mezon ul-avzon, Aruz
risolasi, tuyuq,
qo'shuq, yor-yor, turkiy
adabiyotshunoslik.*

Ushbu maqolada Temuriylar davri adabiyotshunosligining yirik vakillari – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning she'r nav'lari va adabiy janrlar haqidagi nazariy qarashlari tahlil qilinadi. Navoiyning “Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug'atayn” asarlari hamda Boburning “Aruz risolasi” va “Boburnoma” asarlari asosida ularning turkiy she'riyat taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi. Maqolada tuyuq, qo'shuq, chinga (yor-yor), turkiy, tarxoniy, o'lang kabi milliy she'riy shakllarning nazariy asoslari, ularning aruz tizimi bilan bog'liqligi va keyingi davr adabiyotshunosligiga ta'siri ochib beriladi.

Kirish

Temuriylar davri O'rta Osiyo va Xuroson hududida nafaqat siyosiy qudrat, balki ma'naviy-madaniy yuksalish davri sifatida jahon tarixida “Temuriylar Renessansi” deb e'tirof etiladi. Amir Temur asos solgan davlatchilik an'analari uning avlodlari tomonidan davom ettirilib, ilm-fan, madaniyat, she'riyat, me'morchilik, musiqa, shuningdek adabiyot ravnaqiga keng yo'l ochib berdi. Bu davrda ikki- forsiy va turkiy tilda adabiyot baravar rivojlandi. Xususan, Hirot forsiy zabon dunyoning adabiyot va san'at markaziga aylandi, Samarqand va Hirotida turkiy adabiyot ham yuksak cho'qqiga erishdi.

Temuriylar davrida yaratilgan adabiyotshunoslikka oid asarlarni kuzatish mobaynida turkiy adabiyotshunoslik ikki yo'nalishda rivojlanganligini ko'rish mumkin: biri adabiyotning nazariy masalalariga bag'ishlangan asarlar (“Mezon ul-avzon”, “Aruz risolasi”), ikkinchisi shoir, yozuvchi va san'at ahllari hayoti va faoliyati xususida ma'lumot beruvchi tazkiralalar (“Majolis un-nafois”, “Tazkirat ush-shuaro”). Bunda, shubhasiz, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada aynan shu ikki mutafakkirning she'r nav'lari va adabiy janrlarga oid qarashlari tahlil qilinadi.

Alisher Navoiy ilmiy qarashlarida she'r sinflari

=====

Alisher Navoiy (1441-1501) nafaqat buyuk shoir, balki o‘z davrining yetuk adabiyotshunos olimidir. Uning adabiyotshunoslikka oid qarashlari bir qancha asarlarida: “Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Xazoin ul-maoniy” kulliyotining devonlari debochalari, shuningdek, boshqa asarlarida o‘z ifodasini topgan. Navoiy she‘r janrlari masalalariga nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy-tanqidiy nuqtayi nazardan ham yondashgan.

“Mezon ul-avzon” (“Vaznlar mezoni”) 1492-1493 yillarda yaratilgan bo‘lib, muxtasar uslubda bitilgan risoladir. Asar Husayn Boyqaro topshirig‘iga ko‘ra yozilgan. Navoiy muqaddimada turkiy tilda she‘r yozilayotgan bo‘lsa-da, uning qonun-qoidalari ishlab chiqilmaganligini, shuning uchun aruz haqida kitob yozish zarurligini ta’kidlaydi: “Chun turk alfozi bilakim nazm voqa bo‘lubtur, anga zobitae va qonune yo‘q erkondur va ul fan rivoji uchun kishi aruz fannida kitobe va risolae bitmaydur” [Navoiy, 1967: 3]. Risolada 19 bahr va 32 vazn tahlil qilingan. Navoiy har bir vaznni tushuntirish jarayonida turkiy she‘riyatga xos bo‘lgan she‘riy shakllarga ham to‘xtaladi:

Tuyuq – ikki baytdan iborat, tajnis badiiy san‘atiga asoslangan, vazni ramali musaddasi maqsur bo‘lgan she‘riy shakl. Navoiy “Yo Rab, ul shahdu shakar yolabmudur?” mazmunidagi tuyug‘ini misol keltiradi. Tuyuq janri “Devonu lug‘otit turk”da ilk ildizlari namoyon bo‘lgan, “Funun ul-balog‘a”da ruboiyning bir nav‘i sifatida talqin etilgan bo‘lsa, Navoiy davriga kelib mustaqil janr sifatida qonun-qoidalarga ega bo‘lgan.

Qo‘shuq – og‘ushtak usulida ijro etiladigan xalq qo‘shig‘i. Navoiy uning vaznini “foilotun foilun foilotun foilun” deb belgilaydi va bu shaklning Sulton Husayn Boyqaro tomonidan takomillashtirilganini qayd etadi.

Chinga (yor-yor) – turk xalqlari to‘ylarida aytiladigan qo‘shiq. Navoiy “munsarihi matviyi mavquf bahridadur va yor-yor lafzini radif o‘rnig‘a mazkur qilurlar” deb izohlaydi.

Muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy, turkiy kabi shakllar ham risolada vazn jihatidan tahlil etilgan. Navoiy shu o‘rinda turkiy xalqlarning faqat aruz bilan aloqador bo‘lgan she‘riy shakllari xususida ma‘lumot berishni maqsad qilganini va boshqa she‘riy nav‘lar haqida bayon qilish zarur emasligini eslatib o‘tadi: “Chun o‘zlonlarning o‘zmog‘i va o‘zbaklarning budi-budoyi hech vazn bila rost emas erdi, anga taarruz qililmadi” [Navoiy, 1967: 43].

“Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”) 1490-1491 yillarda yozilib, 1498 yilda ikkinchi tahriri qilingan. Asar sakkiz majlis – bobdan iborat bo‘lib, unda 459 nafar shoir, yozuvchi va olimlar haqida ma‘lumot keltirilgan. Tazkirada 20 dan ortiq adabiy janr qayd etilgan: g‘azal, qasida, masnaviy, ruboiy, tuyuq, tarji‘, tarkibband, musammat, muxammas, muammo, lug‘z, munozara, marsiya, tarix, hajv va boshqalar.

Navoiy shoirlar ijodiga baho berishda quyidagi mezonlarni qo‘llagan:

- tab‘i xub (iste‘dod),
- vazn durust (vaznga rioya),
- qofiya pokiza (toza qofiya),

- tashbihoti latif (nozik o'xshatishlar),
- istioroti nozik (nozik istioralar).

G'azal janrini esa "barchadin dilosoroq va nishotafzoroq" deb baholagan. Masalan, Lutfiy haqida: "She'ri ravonlig'idin o'zga ulus shuaroosi ham ajablanurlar" – deb yozadi.

"Muhokamat ul-lug'atayn" asarida Navoiy turkiy tilning forsiy tilga nisbatan she'riy imkoniyatlarini, xususan, omonim so'zlarga boyligi tufayli tajnis va iyhom san'atlarida ustunligini isbotlaydi. Shu o'rinda tuyuq she'riy shakli tilga olinib, uning "turk shoirlariga xos, forslarda yo'qdir" ekanligi ta'kidlanadi. Navoiy tuyuqni "Mezon ul-avzon"da batafsil bayon qilganiga ishora qiladi. Shuningdek, ruboiy janri haqida so'z yuritib, tarse' san'ati qo'llanilgan ruboiy Navoiygacha hech kim tomonidan yaratilmaganligini qayd etadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning she'r nav'lari xususidagi nazariy qarashlari

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) o'zining sermazmun ijodi – she'riy devoni, "Boburnoma" memuar asari, "Mubayyin" fiqhiy risolasi, "Aruz risolasi", harbiy va musiqaga oid risolalari bilan o'zbek adabiyotshunosligiga katta hissa qo'shgan. Uning "Aruz risolasi" turkiy she'riyat nazariyasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

"Aruz risolasi" 1523-1525 yillarda yozib tugatilgan. Asar qo'lyozmasi hijriy 940 (mil. 1533-1534) yilda kotib Muhammad Samarqandiy tomonidan ko'chirilgan. Risola ikki yirik bobdan iborat: birinchi bobda hijo, rukn, zihof, juzv va aruz doiralari haqidagi nazariy qarashlar; ikkinchi bobda vaznlar va ularning taqti' imkoniyatlari bayon qilingan. Bobur aruzning 21 bahrida jami 537 vaznni aniqlagan, ulardan 289 tasi musta'mal (qo'llaniladigan), 248 tasi muxtara' (yangi kashf etilgan) ekanligini ko'rsatgan [Hasanov, 2011: 70].

Bobur asarda arab va fors aruzshunosligining nazariy qoidalariga tayangan holda, turkiy xalqlar og'zaki va yozma adabiyotida mavjud bo'lgan milliy she'riy shakllarning ilmiy tahlilini amalga oshirgan. Bobur tuyuq janriga alohida o'rin ajratadi. Uning yozishicha, tuyuq ramal bahrida, ikki bayt (to'rt misra) hajmida yoziladi. Bobur tuyuqning 7 xil turini keltiradi:

1. Birinchi tur – har uch qofiyada tajnisli qofiyaga rioya qilinadi (a-a-b-a shaklida). Navoiy misoli keltirilgan.

2. Ikkinchi tur – "qit'adek burung'i baytning avvalg'i misraida qofiya rioyat qilmay baytlarning qofiyasida tajnis keltururlar" (a-b-d-b).

3. Uchinchi tur – tajnis qo'llanilmay, ikki qofiya bilan aytiladi.

4. To'rtinchi tur – tajnis qo'llanilmay, uch qofiya bilan aytiladi.

5. Beshinchi tur – har to'rt qofiyada tajnis qo'llanadi.

6. Oltinchi tur – uch misrada tajnis radif o'rnida kelib, qofiya saqlanadi.

7. Yettinchi tur – tajnisdan oldin hojib (qofiyadan oldin kelgan takroriy so'z) ham rioya qilingan tuyuq. Boburning bu batafsil tasnifi turkiy adabiyotda tuyuq janrining mustaqil va o'z qonun-qoidalariga ega ekanligini isbotlaydi.

Bobur risolada turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan bir qancha she'riy shakllarning vazn va ijro xususiyatlarini ham yoritgan:

Qo'shuq – og'ushtak usulida ijro etiladi. Vazni ramali musammani mahzuf. Misol: "Kelgil ey oromi jon necha tortay intizor, / Qildi hajring notavon, qildi shavqing beqaror" [Bobur, 1971: 155].

Turkiy – Sulton Husayn Boyqaro zamonda paydo bo'lgan surud. Vazn jihatdan ramal bahri bilan bog'liq.

Tarxoniy – atroq aroasida keng tarqalgan surud. Misol: "Bu charxning men ko'rmagan javru jafosi qoldimu, / Ham xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?"

O'lang – to'ylarda aytiladigan qo'shiq. Har misradan so'ng "yor-yor" lafzi takrorlanadi. Vazni munsarih bahri. Bobur bu kuyni "xeyli raboyanda va yaxshi" deb baholaydi. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da bu shaklni "chinga" deb atagan.

Bobur, shuningdek, ruboiy janriga ham alohida to'xtalib, uning hazaj bahrining axram va axrab vaznlarida yozilishini, "g'oyat raboyanda va latofatli" ekanligini ta'kidlaydi. Navoiy va o'zining ruboiylaridan namunalar keltiradi.

"Boburnoma" asari nafaqat tarixiy voqealar xronikasi, balki o'z davri adabiy muhiti, ijodkorlar taqdiri va she'riyatga oyinalik qiluvchi nodir manbadir. Unda 50 ga yaqin shoir va adibning nomi, asarlari va ularga berilgan adabiy-estetik baholar o'z ifodasini topgan. Bobur zamondoshlarining she'riyatini baholashda "kalomi dilpazir", "tab'i nazmi bor", "yomon aytmaydur" kabi ifodalardan foydalanadi. Alisher Navoiy haqida: "Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'b va xo'b aytgon emas" deb yozadi. Otasi Umarshayx Mirzo haqida: "Tab'i nazmi bor edi, vale she'rga parvo qilmas edi" deya baholaydi. Muhammad Solih she'riyatiga esa "yomon aytmaydur", biroq "Shayboniyнома" asari "bisyor sust va firudtur" deya tanqidiy munosabat bildiradi.

Xulosa

Temuriylar davri adabiyotshunosligi turkiy she'r navlari va janr munosabati masalalarining nazariy jihatdan rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning bu boradagi qarashlari bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim manbani tashkil etadi.

1. Navoiyning xizmatlari: "Mezon ul-avzon" asarida aruz ilmini turkiy she'riyat talablariga moslab qayta ishlab, 19 bahr va 32 vaznni tahlil qilgan. Turkiy she'riy shakllar – tuyuq, qo'shuq, chinga (yor-yor), muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy, turkiyni ilk bor ilmiy asosda izohlagan. "Majolis un-nafois" tazkirasida 20 dan ortiq adabiy janr qayd etilib, shoirlar ijodiga baho berish mezonlari ishlab chiqilgan. "Muhokamat ul-lug'atayn"da turkiy tilning forsiy tilga nisbatan she'riy imkoniyatlari, xususan, omonim so'zlarga boyligi tufayli tajnis va iyhom san'atlarida ustunligi isbotlangan.

2. Boburning xizmatlari: "Aruz risolasi"da aruz ilmining bahr, vazn, zihoflar va taqti' masalalarini tizimli bayon qilib, 21 bahrda jami 537 vaznni aniqlagan. Tuyuq janrining 7 xil

=====

turini, qofiyalanish xususiyatlarini va tajnis san'ati bilan bog'liqligini batafsil yoritgan. Qo'shuq, turkiy, tarxoniy, o'lang kabi xalq she'riy shakllarining vazn va ijro xususiyatlarini belgilab bergan. "Boburnoma"da 50 ga yaqin shoir va adibning ijodiga estetik baho bergan.

3. Umumiy ahamiyati: Navoiy nazariy asoslarni yaratib, turkiy she'riyatning ilmiy tizimini qurgan bo'lsa, Bobur bu an'anani amaliy misollar va xalq she'riyati namunalari bilan boyitgan. Ularning asarlari keyingi davr – jaded adabiyotshunosligi (Fitrat, Sa'diy) uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan. Temuriylar davri adabiyotshunosligida ishlab chiqilgan she'r navlari tasnifi, baholash mezonlari va nazariy qoidalar bugungi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. Нашрга тайёрловчи Иззат Султон. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.

2. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 20 жилдлик. 12-жилд. – Тошкент: Фан, 1966.

3. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Тошкент: Тафаккур, 2014.

4. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.

5. Захириддин Муҳаммад Бобир. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасанов. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фан нашриёти, 1971.

6. Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002.

7. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.

8. Ҳасанов С. Захириддин Муҳаммад Бобур. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2011.

9. Султонов И. Навоийнинг "Мезон ул-авзон"и ва унинг критик тексти. Филол.фан.докт. дисс. – Тошкент, 1947.

10. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006.

11. Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Тошкент: Malik Print Co, 2021.

12. Namroyeva O. Adabiyotshunoslik tarixi. Darslik. I qism. – Toshkent: Bookmany print, 2026.